

EUROPEAN COLONIAL STRATEGIES IN SOUTHEAST ASIA: AN ANALYSIS OF GEOPOLITICAL COMPETITION AND SOCIO- ECONOMIC CONSEQUENCES

Qaxramon Sobirjonov

1st-year Master's Student, Faculty of History National University of Uzbekistan
(NUUZ)

Abstract

This article analyzes the colonial policy of European states in Southeast Asia during the 16th–20th centuries, the strategic rivalry of Western empires, and its geopolitical dynamics. Based on concrete historical facts, the study highlights the tax, land, and demographic reforms implemented by colonial administrations. The paper reveals the negative and contradictory consequences of the colonial system on the socio-economic life of the region's population, as well as its modern long-term impacts.

Keywords

Southeast Asia, European colonialism, geopolitical competition, East India Company, socio-economic consequences, demographic shifts, Cultivation System, infrastructure.

YEVROPA DAVLATLARINING JANUBIY-SHARQIY OSIYODAGI MUSTAMLAKACHILIK STRATEGIYALARI GEOSIYOSIY RAQOBAT VA IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI–XX asrlarda Yevropa davlatlarining Janubiy-Sharqiy Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosati, g'arb imperiyalarining mintaqadagi strategik raqobati va uning geosiyosiy dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustamlaka ma'muriyatlari tomonidan amalga oshirilgan soliq, yer va demografik islohotlar aniq tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Maqolada mustamlakachilik tizimining mintaq xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan salbiy va ziddiyatli oqibatlari hamda bugungi kungi asoratlari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yevropa mustamlakachiligi, geosiyosiy raqobatchilik, Ost-Indiya kompaniyasi, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, demografik oʻzgarishlar, "Kulturtizim", infratuzilma.

Аннотация: В данной статье анализируется колониальная политика европейских государств в Юго-Восточной Азии в XVI–XX веках, стратегическое соперничество западных империй и его геополитическая динамика. В исследовании на основе конкретных исторических фактов освещаются налоговые, земельные и демографические реформы, проведенные колониальными администрациями. В статье раскрываются негативные и противоречивые последствия колониальной системы для социально-экономической жизни народов региона, а также её современные отголоски.

Ключевые слова: Юго-Восточная Азия, европейский колониализм, геополитическое соперничество, Ост-Индская компания, социально-экономические последствия, демографические изменения, "Культурная система", инфраструктура.

Yevropa davlatlarining Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati shunchaki hududiy kengayish jarayoni boʻlmay, balki Gʻarb kapitalistik davlatlarining xomashyo manbalari, strategik savdo yoʻllari va yangi bozorlar uchun olib borgan shafqatsiz geosiyosiy raqobati mahsulidir. Bu jarayon XVI asrdan boshlanib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga kelib oʻzining eng yuqori choʻqqisiga chiqdi hamda mintaqaxalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va demografik qiyofasini butunlay oʻzgartirib yubordi. Mintaqaga birinchilardan boʻlib suzib kelgan portugaliyalik dengizchi Afonso de Albuquerque 1511-yilda strategik jihatdan muhim boʻlgan Malakka sultonligini zabt etishi bilan Janubiy-Sharqiy Osiyoda Yevropa gegemonligiga tamal toshi qoʻyildi¹.

Portugallarning asosiy maqsadi mintaqadagi ziravorlar savdosini toʻliq monopoliyaga olish edi. Biroq, XVII asrga kelib xalqaro maydonga ancha baquvvat

¹ Tarling N. The Cambridge History of Southeast Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – P. 45



iqtisodiy tuzilmalar — aksiyadorlik kompaniyalari kirib keldi. Binobarin, 1602-yilda tashkil etilgan Niderlandiya Ost-Indiya kompaniyasi (Vereenigde Oostindische Compagnie – VOC) o‘zining ulkan harbiy-dengiz floti va moliyaviy qudrati bilan portugallarni mintaqadan siqib chiqara boshladi. VOC rahbari Yan Piterzoon Koen 1619-yilda Bataviya (hozirgi Jakarta) shahriga asos soldi va uni niderlandlarning mintaqadagi bosh boshqaruv markaziga aylantirdi. Niderlandlar mahalliy sultonliklar o‘rtasidagi o‘zaro nizolardan ustalik bilan foydalanib, Bantam, Mataram sultonliklarini bo‘ysundirdi va 1641-yilda Malakkani ham portugallardan tortib oldi².

Niderlandlarning asosiy iqtisodiy strategiyasi Ambon va Banda orollaridagi mixmix (chinnigul) va muskat yong‘og‘i ishlab chiqarishni qattiq nazorat qilishga qaratilgan edi. Masalan, 1621-yilda Yan Piterzoon Koen buyrug‘i bilan Banda orollarining tub aholisi deyarli qirib tashlandi; 15 000 ga yaqin aholidan atigi bir necha yuz kishi tirik qoldi xolos va ularning o‘rniga niderlandiyalik plantatorlar hamda qullar joylashtirildi. Bu esa Yevropa iqtisodiy manfaatlari yo‘lida amalga oshirilgan ilk ommaviy demografik fojialardan biri edi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib, Yevropadagi sanoat to‘ntarishi mustamlakachilikning xarakterini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda faqat ziravorlar emas, balki sanoat uchun zarur bo‘lgan qalay, kauchuk, neft va kofe kabi xomashyolar birlamchi maqsadga aylandi. Bu davrda maydonga Buyuk Britaniya va Fransiya kabi yirik sanoat imperiyalari kirdi. Angliya Ost-Indiya kompaniyasi agenti Tomas Stemford Rafflz 1819-yil 6-fevralda Joxor sultonligi bilan shartnoma imzolab, Singapur portiga asos soldi³.

Singapur qisqa muddatda boj olinmaydigan erkin savdo hududiga aylanib, Britaniyaning mintaqadagi eng yirik iqtisodiy va harbiy tayonchiga aylandi. 1824-yildagi London shartnomasiga binoan, Britaniya va Niderlandiya Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ta’sir doiralarini Malakka bo‘g‘ozi orqali rasman bo‘lib olishdi: bo‘g‘ozdan shimoldagi hududlar (Malaya, Singapur) Britaniyaga, janubdagilar (Indoneziya

² Ricklefs M.C. A History of Modern Indonesia since c. 1200. – London: Palgrave Macmillan, 2001. – P. 22

³ Boxer C.R. The Dutch Seaborne Empire 1600–1800. – London: Hutchinson, 1965. – P. 78



arxipelagi) Niderlandiyaga o'tdi. Britaniyalik mustamlakachi ma'mur James Bruk 1841-yilda Bruney sultonidan Saravak hududini tortib olib, o'zini "Oq raja" deb e'lon qildi va Shimoliy Borneoda o'z sulolasini boshqaruvini o'rnatdi.

Britaniya Malayada iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun intensiv usullardan foydalandi. XIX asr oxirida Malayaning Perak provinsiyasidagi Larut vodiysida ulkan qalay konlari ishga tushirildi. Shu bilan birga, 1877-yilda Genri Vikhem tomonidan Braziliyadan kontrabanda yo'li bilan olib kelingan va Londonning Kyu bog'larida o'stirilgan kauchuk ko'chatlari Malayaga ekildi. Bu daraxtlar keyinchalik Malayani dunyodagi eng yirik kauchuk yetkazib beruvchiga aylantirdi.

Geosiyosiy muvozanatni saqlash va inglizlarning kuchayib ketishiga to'sqinlik qilish maqsadida Fransiya ham mintaqada faol harbiy harakatlarni boshladi. Fransuz mustamlakachiligining asosiy maqsadi Xitoy bozorlariga janubdan kirib borish yo'lini (Mekong daryosi orqali) nazorat qilish edi. Imperator Napoleon III buyrug'i va admiral Sharl Rigo de Jenuayi qo'mondonligi ostida fransuz-ispn qo'shinlari 1858-yilda Danang portiga hujum qildi va 1859-yilda Saygonni egalladi. 1862-yildagi Saygon shartnomasiga ko'ra, Vyetnam imperatori Tu Duk Fransiya Kochinxinning (Janubiy Vyetnam) uchta provinsiyasini berishga majbur bo'ldi⁴.

Fransiya o'z ekspansiyasini davom ettirib, 1863-yilda Kambodjani, keyinchalik Annam va Tonkinni (Markaziy va Shimoliy Vyetnam) protektoratga aylantirdi. 1887-yil 17-oktabrda rasman Fransiya Hindixitoy Ittifoqi (Union indochinoise) tuzildi, unga keyinchalik, 1893-yilda Fransiya-Siam urushidan so'ng Laos ham qo'shib olindi. Fransuz general-gubernatori Pol Dumer (1897–1902-yillarda boshqargan) Hindixitoyi iqtisodiy jihatdan o'z-o'zini ta'minlaydigan va Fransiya ulkan foyda keltiradigan tizimga aylantirish uchun soliq islohotlarini o'tkazdi, tuz, afyun va guruch aylanmasini tovar monopoliyasiga oldi⁵.

XIX asr oxiriga kelib mintaqadagi geosiyosiy kurashga yangi global kuch —

⁴ Reid A. Southeast Asia in the Age of Commerce, 1450-1680. – New Haven: Yale University Press, 1993. – P. 112

⁵ Taylor J.G. Indonesia: Peoples and Histories. – New Haven: Yale University Press, 2003. – P. 67



Amerika Qo'shma Shtatlari ham qo'shildi. 1898-yilgi Ispaniya-Amerika urushi natijasida kommodor Jorj Dyui Manila qo'ltig'ida Ispaniya flotini tor-mor etdi. Parij tinchlik shartnomasiga binoan, AQSh Ispaniyaga 20 million dollar to'lab, Filippinni o'z mustamlakasiga aylantirdi. Filippin xalqi Emilio Aginaldo rahbarligida mustaqillik uchun kurashgan bo'lsa-da, 1899–1902-yillardagi AQSh-Filippin urushida shafqatsizlarcha bostirildi; ushbu urush oqibatida 200 000 dan ortiq tinch aholi ochlik, kasallik va harbiy harakatlar tufayli halok bo'ldi.

AQSh Filippinda g'arblashtirish siyosatini olib bordi, ingliz tilini davlat tili sifatida majburiy qildi va ta'lim tizimini o'z modeliga moslashtirdi. Mintaqada faqatgina Siam (hozirgi Tailand) qirolligi Yevropa mustamlakasiga aylanmasdan, o'z mustaqilligini saqlab qola oldi. Qirol Rama IV (Mongkut) va uning o'g'li Rama V (Chulalongkorn) olib borgan oqilona diplomatiya, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda ingliz (Birma va Malaya) va fransuz (Hindixitoy) hududlari o'rtasida "bufer zona" (oraliq xavfsiz hudud) vazifasini bajarish evaziga Tailand mustaqilligini saqlab qoldi, biroq baribir ba'zi chegara hududlarini fransuzlar va inglizlarga berishga majbur bo'ldi⁶.

Mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari juda ziddiyatli va chuqur asoratlarga ega edi. Bir tomondan, Yevropa kapitali hisobiga mintaqada ulkan infratuzilma ob'ektlari barpo etildi. Niderlandlar Yavada kofe, shakarqamish va tamaki yetishtirishni majburiy qilgan "Kulturtizim" (Cultuurstelsel, 1830-yilda general-gubernator Yoxannes van den Bosch tomonidan joriy etilgan) doirasida dehqonlarni o'z yerlarining 20 foiziga eksportbop ekinlar ekishga majbur qildi.

Bu tizim Niderlandiya g'aznasiga trillionlab guldens daromad keltirib, mamlakatni inqirozdan qutqardi, ammo Yavada 1840–1850-yillarda dahshatli ocharchilik va epidemiyalarga sabab bo'ldi. Infratuzilmani rivojlantirish maqsadida fransuzlar Hindixitoyda trans-hindixitoy temir yo'lini (Saygon-Xanoy) qurdilar, Britaniya esa Malayada konlarni portlar bilan bog'lovchi minglab kilometrlik yo'llar barpo etdi. Biroq

⁶ Furnivall J.S. Netherlands India: A Study of Plural Economy. – Cambridge: Cambridge University Press, 1944. – P. 34
11

bu qurilishlar mahalliy aholining og'ir majburiy mehnati evaziga amalga oshirildi⁷.

Ijtimoiy sohadagi eng katta oqibatlardan biri demografik tarkibning sun'iy ravishda o'zgartirilishi bo'ldi. Britaniyaliklar Malayadagi kauchuk plantatsiyalari va qalay konlarida ishlatish uchun Janubiy Hindistondan yuz minglab tamillarni hamda Xitoyning janubiy provinsiyalaridan ishchilarni ("kuli"larni) ommaviy ravishda olib kelishdi. Masalan, 1931-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Malayada xitoyliklar va hindlarning umumiy soni tub joy malay xalqi sonidan oshib ketgan edi.

Bu esa "parchala va hukmronlik qil" (divide et impera) siyosatining yaqqol misoli bo'lib, Yevropaliklar ketganidan keyin ham mintaqa davlatlarida (masalan, Malayziya va Indoneziyada) uzoq yillar davom etgan millatlararo va diniy nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratdi. Mustamlakachilar iqtisodiyotni faqat bir tomonlama — xomashyo eksportiga moslashtirib qo'yganliklari sababli, mahalliy an'anaviy hunarmandchilik va to'qimachilik tarmoqlari Yevropadan kirib kelgan arzon sanoat mahsulotlari raqobatiga bardosh berolmay butunlay kasodga uchradi. Mahalliy elita vakillari faqatgina mustamlaka ma'muriyatining quyi bo'g'inlarida xizmat qiluvchi itoatkor byurokratlar sifatida tarbiyalandi. Maktablar va ta'lim tizimi ham G'arb madaniyatini singdirish va g'arblashgan tabaqani shakllantirishga xizmat qildi⁸.

Yevropa davlatlarining Janubiy-Sharqiy Osiyodagi geosiyosiy va iqtisodiy ekspansiyasi faqatgina yirik quruqliklar yoki portlar bilan cheklanib qolmasdan, balki mintaqadagi an'anaviy ichki savdo tizimini ham butunlay izdan chiqardi. XIX asrning o'rtalariga kelib, Britaniya imperiyasi nafaqat Malay yarim orolini, balki unga qo'shni bo'lgan Birmani (hozirgi Myanma) ham bosqichma-bosqich bosib olish strategiyasini amalga oshirdi. Konbaung sulolasi boshqaruvidagi Birma qirolligi va Britaniya o'rtasida uchta yirik urush bo'lib o'tdi. Lord Amxerstdan keyin Hindiston general-gubernatori bo'lgan Lord Dalxauzi davrida, ya'ni 1852-yilda ikkinchi ingliz-birma urushi natijasida

⁷ Turnbull C.M. A History of Singapore, 1819–1988. – New York: Oxford University Press, 1989. – P. 15.

⁸ Webster A. Gentlemanly Capitalism and British Imperialism. – London: I.B.Tauris, 1998. – P. 89.



Quyida Birma va strategik Pegu provinsiyasi Britaniya tarkibiga qo'shib olindi⁹.

1885-yilda esa uchinchi ingliz-birma urushi yakunida Britaniya qo'shinlari poytaxt Mandalay shahrini egalladi, so'nggi qirol Tibav asirga olingan holda Hindistonga surgun qilindi va 1886-yil 1-yanvarda Birma rasman Britaniya Hindistonining provinsiyasi deb e'lon qilindi¹⁰. Britaniyaliklar Birmada iqtisodiy monopoliya o'rnatib, mamlakatni dunyodagi eng yirik guruch eksport qiluvchi hududga aylantirishdi (Irravadi daryosi deltasidagi guruch maydonlari 1852-yildagi 600 ming akrdan 1920-yilga kelib 5,5 million akrga yetdi), shu bilan birga "Bombei Burma Trading Corporation" kabi yirik kompaniyalar orqali qimmatbaho tik daraxti (teak) va neft mahsulotlarini shafqatsizlarcha talon-toraj qildilar.

Ayni shu davrda Niderlandiya hukumati ham Indoneziya arxipelagidagi o'z nazoratini yanada mustahkamlash maqsadida Sumatra orolining shimolidagi mustaqil Ache sultonligiga qarshi 1873-yilda urush boshladi. Tarixda "Ache urushi" (Atjeh-oorlog) nomi bilan qolgan va 1904-yilgacha deyarli 30 yildan ortiq davom etgan bu qonli to'qnashuvda niderlandiyalik general J.B. van Heutsz partizanlik harakatlarini shafqatsizlik bilan bostirdi; ushbu urushda 100 000 dan ortiq acheliklar halok bo'ldi.

Niderlandiyalik islomshunos olim Snouk Xurgronyening tavsiyalari asosida mahalliy diniy ulamolar va xalq o'rtasiga nifoq solish siyosati qo'llanildi. Sumatra orolining to'liq bo'ysundirilishi bilan niderlandlar bugungi kunda dunyoda eng yirik neft kompaniyalaridan biri hisoblangan "Royal Dutch Shell" korporatsiyasining asosi bo'lgan Pangkalan Brandan konidan (1885-yil) neft qazib olishni boshladilar va bu ulkan iqtisodiy foyda keltirdi¹¹.

Mustamlakachilik siyosati mintaqadagi an'anaviy qishloq xo'jaligini eksportga yo'naltirilgan monomadaniyat (faqat bir turdagi ekin ekish) tizimiga aylantirdi. Fransiya Hindixitoyida Pol Dumer tomonidan joriy etilgan soliq islohotlari dehqonlarni og'ir

⁹ Cady J.F. A History of Modern Burma. – Ithaca: Cornell University Press, 1958. – P. 72

¹⁰ Myint-U T. The Making of Modern Burma. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 134

¹¹ Vickers A. A History of Modern Indonesia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P. 42



ahvolga solib qo'ydi. Masalan, 1900-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Vyetnamda tuz, afyun va guruch aravasi monopoliyasidan tushgan daromad fransuz mustamlaka budjetining 70 foizidan ortig'ini tashkil qilgan¹².

Fransuz kompaniyalari, xususan "Michelin" kauchuk kompaniyasi, Kochinxin va Kambodjadagi ulkan plantatsiyalarda mahalliy aholini shartnomaviy qullik (coolie) tizimi asosida ishlatdi. Bu plantatsiyalarda bezgak va og'ir mehnat sharoitlari tufayli ishchilar o'rtasida o'lim ko'rsatkichi 20-30 foizgacha yetgan, bu esa ijtimoiy noroziliklar va keyinchalik kommunistik harakatlarning ildiz otishiga zamin yaratdi. Filippinda esa AQSh ma'muriyati Taft komissiyasi (1900-yil, Uilyam Govard Taft rahbarligida) orqali katolik cherkoviga tegishli bo'lgan 390 ming akr unumdor yerlarni sotib olib, ularni amerikalik va mahalliy elita (hacienderos) vakillariga bo'lib berdi, bu esa qishloqlarda yer tabaqalanishini va kambag'allikni yanada kuchaytirdi¹³.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa davlatlarining Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mustamlakachilik strategiyalari mintaqani global iqtisodiy tizimga integratsiya qilgan bo'lsa-da, bu integratsiya mahalliy xalqlarning siyosiy mustaqilligi, iqtisodiy boyliklari va ijtimoiy birdamligi hisobiga, ulkan qurbonlar va asoratlar evaziga amalga oshirildi hamda bugungi kun zamonaviy Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining chegaralari va ichki ijtimoiy muammolarining shakllanishida bosh omil bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adas M. The Burma Delta: Economic Development and Social Change on an Asian Rice Frontier, 1852–1941. – Madison: University of Wisconsin Press, 1974. – P. 88.
2. Alatas S.H. The Myth of the Lazy Native. – London: Frank Cass, 1977. – P. 94
3. Andaya B.W., Andaya L.Y. A History of Malaysia. – London: Palgrave Macmillan, 2001. – P. 142

¹² Brocheux P., Hémery D. Indochina: An Ambiguous Colonization, 1858–1954. – Berkeley: University of California Press, 2005. – P. 165

¹³ Murray M.J. The Development of Capitalism in Colonial Indochina. – Berkeley: University of California Press, 1980. – P. 210



4. Boxer C.R. The Dutch Seaborne Empire 1600–1800. – London: Hutchinson, 1965. – P. 78.
5. Brocheux P., Hémery D. Indochina: An Ambiguous Colonization, 1858–1954. – Berkeley: University of California Press, 2005. – P. 38, 165
6. Cady J.F. A History of Modern Burma. – Ithaca: Cornell University Press, 1958. – P. 72
7. Drabble J.H. Rubber in Malaya, 1876-1922. – New York: Oxford University Press, 1973. – P. 56
8. Elson R.E. Village Java under the Cultivation System, 1830–1870. – Sydney: Allen & Unwin, 1994. – P. 83
9. Fasseur C. The Politics of Colonial Exploitation: Java, the Dutch, and the Cultivation System. – Ithaca: Cornell University Press, 1992. – P. 51
10. Furnivall J.S. Netherlands India: A Study of Plural Economy. – Cambridge: Cambridge University Press, 1944. – P. 34
11. Gates J.M. Schoolbooks and Krag: The United States Army in the Philippines. – Westport: Greenwood Press, 1973. – P. 63
12. Karnow S. In Our Image: America's Empire in the Philippines. – New York: Random House, 1989. – P. 104
13. Murray M.J. The Development of Capitalism in Colonial Indochina. – Berkeley: University of California Press, 1980. – P. 114, 210
14. Myint-U T. The Making of Modern Burma. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 134
15. Osborne M.E. The French Presence in Cochinchina and Cambodia. – Ithaca: Cornell University Press, 1969. – P. 72.

